

Raxmonkulova Oksana Alikulovna
Qarshi davlat universiteti
dotsenti

Ochilova O'g'iloy
Qarshi davlat universiteti
magistranti

OLIV TA'LIM TIZIMI RIVOJIDA XOTIN-QIZLAR ISHTIROKI VA UNING TARIXIY DINAMIKASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim rivojlanish jarayonida xotin-qizlarning ishtiroki, ularning ta'lim, ilm-fan va innovatsiya sohalaridagi faolligi hamda erishayotgan yutuqlari tahlil qilinadi. Oliy ta'lim tizimida ayollarning ilmiy salohiyatini oshirish va ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini mustahkamlash masalalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, xotin-qizlar, ilm-fan, ilmiy salohiyat, innovatsiya, jamiyat taraqqiyoti.

WOMEN'S PARTICIPATION IN THE DEVELOPMENT OF THE HIGHER EDUCATION SYSTEM AND ITS HISTORICAL DYNAMICS

Annotation. This article analyzes the participation of women in the development of higher education, their activity in the fields of education, science and innovation, and their achievements. The issues of increasing the scientific potential of women in the higher education system and strengthening their role in the development of society are highlighted.

Keywords: higher education, women, science, scientific potential, innovation, social development.

УЧАСТИЕ ЖЕНЩИН В РАЗВИТИИ СИСТЕМЫ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ И ЕГО ИСТОРИЧЕСКАЯ ДИНАМИКА

Аннотация. В данной статье анализируется участие женщин в развитии высшего образования, их деятельность в сферах образования, науки и инноваций, а также их достижения. Выделены вопросы повышения научного потенциала женщин в системе высшего образования и усиления их роли в развитии общества.

Ключевые слова: высшее образование, женщины, наука, научный потенциал, инновации, социальное развитие.

Kirish Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti bilim va intellektual salohiyatga asoslanadi. Shu bois oliy ta'lim tizimi davlat rivojlanishining strategik poydevori sifatida e'tirof etilmoqda. Bu jarayonda xotin-qizlarning faol ishtiroki ta'lim tizimi samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biridir. So'nggi yillarda xotin-qizlarning oliy ta'limga qamrov darajasi sezilarli ravishda ortib, ularning ilmiy-tadqiqot, pedagogik va boshqaruv faoliyatidagi ishtiroki kengaymoqda. Ayollar nafaqat ta'lim oluvchi sifatida, balki ilm-fan rivojiga hissa qo'shayotgan olima, innovator va yetakchi mutaxassis sifatida ham o'z salohiyatini namoyon etmoqda. Bu holat oliy ta'lim rivojlanish jarayonida gender tenglik tamoyillarining amalda qaror topayotganidan dalolat beradi. Oliy ta'lim tizimida xotin-qizlarning ishtiroki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi, innovatsion taraqqiyoti hamda inson kapitalining yuksalishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Chunki ayollarning ilmiy va kasbiy salohiyati kengaygan sari ta'lim sifati, tadqiqotlar samaradorligi va intellektual muhit yanada boyiydi.

1991-yildan keyin oliy ta'lim tizimida tub islohotlar amalga oshirildi. Ta'limning milliy modeli shakllantirilishi, oliy ta'lim muassasalari sonining ortishi va ta'lim yo'nalishlarining diversifikatsiya qilinishi xotin-qizlar ishtiroki oshishiga xizmat qildi.

Ayniqsa, so‘nggi yillarda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat dasturlari, grant va imtiyozlar ularning oliy ta‘limga kirish imkoniyatlarini kengaytirdi. Bu jarayon ayollarning ilm-fan, boshqaruv va tadbirkorlik sohasidagi faolligining ortishiga olib keldi.

Shu bois oliy ta‘lim rivojlanish jarayonida xotin-qizlarning ishtiroki va yutuqlarini tahlil qilish, ularning ta‘lim tizimidagi o‘rnini ilmiy asosda yoritish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mustaqillikning ilk yillarida O‘zbekiston Respublikasida oliy ta‘lim tizimida xotin-qizlarning ishtiroki ham huquqiy, ham amaliy jihatdan rivojlantirilishiga alohida e‘tibor qaratildi. Shu davrda davlat siyosati nafaqat qizlarning oliy ta‘lim muassasalariga kirishini ta‘minlashga, balki ularni ilmiy faoliyatga jalb qilishga qaratildi[1].

1991–2000-yillarda oliy ta‘lim muassasalarida qiz talabalar sonini oshirish maqsadida bir qator huquqiy va moliyaviy mexanizmlar joriy etildi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasi ayollarning ta‘lim olish huquqini kafolatlabdi. Shu bilan birga, 1995-yilda qabul qilingan “Ayollar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qaror qiz talabalarni oliy ta‘limga jalb qilish uchun asos bo‘ldi[2].

Bu davrda xotin-qizlar oliy ta‘limda faol ishtirok etib, nafaqat ilmiy salohiyatini oshirdi, balki hududiy rivojlanishda ham muhim rol o‘ynadi. Oliy ta‘limga kirishda qiz talabalar uchun maxsus stipendiyalar va grantlar ajratildi. Bu esa ularni ilmiy faoliyatga va pedagogik ishga rag‘batlantirdi.

2000–2016-yillarda O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimida xotin-qizlar faolligining kengayishi va ularning yutuqlarini mustahkamlash davri sifatida ajralib turadi. Shu davrda davlat siyosati qizlarning oliy ta‘limda ishtirokini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsion faoliyatga jalb qilishga qaratildi. Bu davrda oliy ta‘lim muassasalarida qiz talabalar uchun grantlar, stipendiyalar va ilmiy loyihalar ajratildi. Qiz talabalar tomonidan ilmiy maqolalar tayyorlandi, konferensiyalarda ishtirok etildi. Ilmiy laboratoriyalar va innovatsion klublar tashkil qilindi, bu esa qizlarning metodik va texnologik loyihalarni amalga oshirish imkonini berdi[3].

2000–2016-yillarda qizlar uchun oliy ta‘limda teng imkoniyatlar yaratish bo‘yicha bir qator huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Qizlar uchun kvota tizimi joriy etildi. Oliy ta‘lim muassasalarida qiz talabalar va ayol pedagoglarning faolligi rag‘batlantirildi. Mahalliy kengashlar va oliy ta‘lim muassasalaridagi ayol vakilliklari oshirildi. Xotin-qizlar oliy ta‘limda nafaqat o‘qish, balki ilmiy va innovatsion faoliyat bilan ham keng ishtirok etganini ko‘rsatadi.

2017–2025-yillar O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimida xotin-qizlar faolligi yangi bosqichga ko‘tarildi. Ushbu davrda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan ijtimoiy va ta‘lim siyosati ayollarni ilm-fan va innovatsion loyihalarga jalb qilishni rag‘batlantirdi[4]. Xotin-qizlar oliy ta‘limda faolligi va yutuqlari orqali nafaqat ilmiy va innovatsion sohalarda muvaffaqiyat qozondi, balki hududiy va milliy ta‘lim tizimining rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shdi.

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi prezidentining farmonida gender tenglikni ta‘minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo‘llab-quvvatlashga doir islohotlarni amalga oshirish, xotin-qizlarning ta‘lim va kasbiy ko‘nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko‘maklashish, tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirish kabi vazifalar belgilab qo‘yilgan[5].

Keyingi paytda yurtimizda ilm-fan va ta‘lim, xususan, oliy ta‘lim sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida xotin-qizlar bu yo‘nalishda ham katta natijalarga erishmoqdalar. So‘nggi yetti yilda 5 ming 247 nafar ayollarimiz fan doktori (DSc) va o‘z sohalari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olgan. Birgina 2023-yilning o‘zida 147 nafar xotin-qiz fan doktori, 1 ming 238 nafari esa falsafa doktori ilmiy darajasiga erishgan. Hozirgi kunda ilm-fan sohasida jami 5 mingga yaqin olim ayollarimiz faoliyat ko‘rsatmoqda. Oliygo‘hlarida esa 14 mingdan ziyod opa-singillarimiz pedagogika va ilmiy tadqiqot yo‘nalishida ish olib bormoqda[6].

Xulosa qilib aytganda, oliy ta‘lim rivojlanish jarayonida xotin-qizlarning ishtiroki jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. So‘nggi yillarda ayollarning

oliy ta'limga qamrovi kengayishi, ularning ilmiy-tadqiqot, pedagogik va boshqaruv faoliyatidagi faolligining ortishi ta'lim tizimida sifat va samaradorlikning oshishiga xizmat qilmoqda. Xotin-qizlarning ilmiy salohiyati va innovatsion tashabbuslari oliy ta'lim muassasalarida intellektual muhitni boyitib, yangi g'oya va yondashuvlarning shakllanishiga zamin yaratmoqda. Ularning grant loyihalari, ilmiy maqolalari va amaliy ishlanmalari nafaqat ta'lim tizimi, balki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ham sezilarli hissa qo'shmoqda. Demak, oliy ta'lim rivojlanish jarayonida xotin-qizlarning ishtiroki va yutuqlarini qo'llab-quvvatlash, ularning ilmiy va kasbiy faoliyatini rag'batlantirish kelgusida ham ustuvor vazifa bo'lib qolishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2023.
2. "Ayollar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qaror, Toshkent, 1995.
3. Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy klublar va laboratoriyalar faoliyati, 2005–2010.
4. PF-4958-sonli Farmon, 2017.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi farmoni.
6. <https://innovation.gov.uz/gender-equality/post-1746>